


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TEMIR YO'L MUHANDISLARI INSTITUTI**

«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası



Himoya qilishga ruxsat berilsin
«Buxgalteriya hisobi va audit»
kafedrası mudiri
i.f.n., dots. S.M. Sultanova

«___» _____ 2016 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasida axborot tizimi
moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi ko`rsatkichlarining shakllanishi.

Ta`lim yo`nalishi: 5230900 – “Buxgalteriya hisobi va audit”
(temir yo`l transporti)

Bitiruvchi: Abilqosimova Sh

Ilmiy rahbar: Sultanova S.M.

Toshkent – 2016 y.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TEMIR YO‘L MUHANDISLARI INSTITUTI**

«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası



Himoya qilishga ruxsat berilsin
«Buxgalteriya hisobi va audit»
kafedrası mudiri
i.f.n., dots. S.M. Sultanova

«__»_____ 2016 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasida axborot tizimi
moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi ko`rsatkichlarining shakllanishi.

Ta'lim yo'nalishi: 5230900 – “Buxgalteriya hisobi va audit”
(temir yo'l transporti)

Bitiruvchi: Abilqosimova Sh

Ilmiy rahbar: Sultanova S.M.

Toshkent – 2016 y.

Toshkent Temir yo'l muhandislari instituti

«Buxgalteriya xisobi va audit»
kafedrasining majlisida

TASDIQLANGAN

kafedra mudiri

dots.S.M. Sultanova

«10» 12 2015 yil.

«BAKALAVR» kvalifikatsiyasi darajasini berish uchun
tayyorlanadigan bitiruv ishiga

TOPSHIRIQ

Talaba: Abilqosimova Shahlo Sodiq qizi

Mavzu: «O'ztemiryo'lmashta'mir» Unitar korxonasida axborot tizimi moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarining shakllanishi.

1. Qo'yilgan maqsad.

1.1. Korxonaning axborot tizimi holati va unda moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlar shakllanishini nazariy bilim asosida tahlil qilish

2. Dastlabki ma'lumotlar.

2.1. Korxona Nizomi.

2.2. Korxonaning hisob siyosati.

2.3. Korxonaning xo'jalik ishlab chiqarish faoliyati hisoboti

2.4. Korxonaning moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlari.

2.5. Korxonaning moliyaviy hisobot shakllari (2013-2015 yillar).

2.6 Korxonada mavjud axborot tizimlari va texnologiyalari bo'yicha yo'riqnomalar va nizomlar.

3. Ish mazmuni.

Bo'limlar nomi	Xajmi %	Bajarish muddati
Kirish.	5	
I Bob. «O'ztemiryo'lmashta'mir» Unitar korxonasining axborot tizimlari va uning tahlili	30	
1.1 «O'ztemiryo'lmashta'mir» Unitar korxonasi faoliyatining iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili.	15	
1.2 «O'ztemiryo'lmashta'mir» Unitar korxonasi buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining holati va tahlili.	15	
II Bob. «O'ztemiryo'lmashta'mir» Unitar korxonasida buxgalteriya hisobi	30	
2.1 «O'ztemiryo'lmashta'mir» Unitar korxonasining boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining o'rni va mohiyati.	15	
2.2 «O'ztemiryo'lmashta'mir» Unitar korxonasining moliyaviy natijalari buxgalteriya hisobi.	15	
III Bob. «O'ztemiryo'lmashta'mir» Unitar korxonasida moliyaviy ko'rsatkichlari axborot tizimlarida tatbiq etish samaradorligi	30	
3.1 Buxgalteriya hisobi va axborot tizimlarida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash uslubiyati	10	
3.2 «O'ztemiryo'lmashta'mir» Unitar korxonasida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga qo'llash xususiyatlari	10	

	10	
Xulosa va takliflar	5	
Bitiruv ishi himoyasi		

4. Tavsiya qilingan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni - Toshkent, 2015
2. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir. – T.: O'zbekiston, 2014. 22-jild.
3. Karimov I.A. Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlagan islohotlarimizni yangi bosqichga ko'tarish – bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir. 2015. 23-jild.
4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015.
5. O'zbekiston Respublikasi « Buxgalteriya hisobi » to'g'risidagi qonun. – Toshkent, 1996 yil 30 avgust
6. O'zbekiston Respublikasi « Temir yo'l transporti » to'g'risidagi qonun. – Toshkent, 1996 yil
7. O'zbekiston Respublikasi « Axborotlashtirish » to'g'risidagi qonun. – Toshkent, 2010 yil
8. O'zbekiston Respublikasi « Buxgalteriya hisobining milliy standarti ». – Toshkent, 2010 yil
9. Karimov I.A. «O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish natijalari va 2016 yilgi vazifalar to'g'risida» -Toshkent, 2015yil.
10. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasi –Toshkent, 2014 yil.
11. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi- Toshkent, 2014 yil.
12. “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida” 54- sonli Nizom, Toshkent, 1999 yil 5 fevral
13. “Buxgalteriya hisobiga doir nizomlar”-Toshkent, 2014y.
14. Красов А.П. «Бухгалтерский учет основной деятельности железных дорог»- М.Транспорт, 2008 йил.
15. Gulomova G'.G'. “Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma”- Toshkent, 2010 yil.
16. A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov, N.F. Ishonqulov “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” –Toshkent, 2005yil.
17. Н.И.Силаев, Ф.К.Абдуллаева “Анализ хозяйственной деятельности предприятий железнодорожного транспорта” –Тошкент, 2010йил.
18. Karimov A, Ismoilov F, Avloqulov A, «Buxgalteriya hisobi» -Toshkent, 2004yil.
19. I. Ochilov, J. Qurbonboev “Moliyaviy hisob” – Toshkent, 2004yil.
20. M. To'laxo'jaeva “Audit” 1, 2 tom. –Toshkent, 2008 yil.
21. Jo'raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va Boshqaruv xisobi. Darslik. –Toshkent, 2007 yil .
22. Jo'raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya xisobi, iktisodiy taxlil va audit. Darslik. –Toshkent, 2007 yil.
23. Jo'rayev M.J., Abduvohidov F.T., Sotiboldiyeva D.A. Moliyaviy va boshqaruv hisob –Toshkent: Iqtisod-moliya darslik. 2010yil.

24. "Moliyaviy hisobot shakllari va ularning to'ldirilishi bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrugi 2002 yil 27 dekabr
25. Vohobov A., Ibrohimov A., Ishonqulov N. "Moliyaviy va boshqaruv tahlili",-- Toshkent 2012 y.
26. Toshkent, 2012 yil
27. O.M. Abdullaev, A.V. Kobulov, D.O. Abdullaev, J.Y. Isaakov. "Автоматизированные информационные технологии в решении экономических задач".- Тошкент, 2004 г.
28. Sultanova S.M., Turaev F.K. Buhgalteriya hisobini avtomatlashtirish. O'quv qo'llanma. - Toshkent, TTIMI, 2011 y.
29. Sultanova S.M., Buhgalteriya hisobini avtomatlashtirish. Ma'ruzalar matni - Toshkent, TTIMI, 2010 y.
30. Bolibekov B.O., Musayev A.N., va boshqalar. Buhgalteriya hisobini avtomatlashtirish. o'quv qo'llanma. - Toshkent, "Iqtisod-moliya" 2013y.

Internet saytlar:

<http://www.gov.uz>.

<http://www.ziynet.uz>.

<http://www.nalog.uz>.

<http://www.tashiit.uz>

<http://www.leks.uz>

<http://www.mista.ru>


<http://www.bem.uz>

Bitiruv ishi rahbari

Bitiruvchi

Vazifaning berilgan vaqti:

Ishning yakunlanishi:

 Sultanova S.M.

Abilqosimova Sh.S.

«__» _____ 2015y.

«__» _____ 2016y.

Kirish.....	7
I Bob. “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining axborot tizimlari va uning tahlili.....	12
1.1 “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasi faoliyatining iqtisodiy-moliyaviy ko`rsatkichlari tahlili.....	12
1.2“O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasi buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining holati va tahlili.....	18
II Bob. “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasida buxgalteriya hisobi	27
2.1 “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining o`rni va mohiyati....	27
2.2 “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining moliyaviy natijalari buxgalteriya hisobi.....	32
III Bob. “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasida moliyaviy ko`rsatkichlari axborot tizimlarida tatbiq etish samaradorligi.....	43
3.1 Buxgalteriya hisobi va axborot tizimlarida iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari va ularni hisoblash usullari	43
3.2 “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga qo`llash tartibi	51
Xulosa va takliflar.....	53
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati	56
Ilovalar.....	59

Kirish

Mamlakatimiz ishlab chiqarish sohalarini axborotlashtirish jamiyat rivojlanishining ob'ektiv jarayoni hamda zarur bo'lgan axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va taqdim etishning tabiiy davomidir. Iqtisodiyot, ishlab chiqarish, aloqa, ilmiy-tadqiqot, ta'lim, tibbiyot va biznes sohalaridagi mehnat sifati, mehnat unumdorligi va samaradorlik darajasini yuksaltirish ularda tadbqiq qilinayotgan eng zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to'plangan axborotmahsulotlarini kishilarga tezkor sur'atda etkazib sermehnatlik darajasini kamaytirgan holda mavjud muammolarni hal etish uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. SHuning uchun ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samarali qo'llash mamlakatni texnologik va iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ham yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimida to'laqonli sheriklik o'rnini egallay borishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanish ko'lamlari qanday bo'lishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligini oshishida qanday rol o'ynashiga bog'liq. Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: «Bugungi sharoitda, Internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat» tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga egadir.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda komputer va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Milliy iqtisodiyotimizning rivojida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga tadbiiq etish va uning dolzarbligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Axborot to'g'risida"gi, "Elektron tijoratlashtirish to'g'risida", shuningdek "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunlar asosida bir qancha me'yoriy hujjatlar va dasturlar ishlab chiqildi va bu dasturlarning vazifasi kompyuter va axborot texnologiyalarning ilm-fan va ta'lim sohalariga, milliy iqtisodiyot tarmoqlariga, boshqaruv va biznesga tadbiiq etish, shuningdek aholini zamonaviy texnologiyalariga jalb qilish jarayonida sharoitlarni yaratishdan iborat.

"2015-2019-yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish dasturining asosiy qoida va yo'nalishlarini so'zsiz bajarish bo'yicha boshlangan ishlarni 2016-yilda ham davom ettirish eng muhim vazifamizdir"²deb O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tilgan.

O'tgan 2015 yilda "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati o'z

² O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni "2014 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan" Vazirlar Mahkamasining majlisidagi so'zlagan ma'ruzasida belgilangan vazifa va topshiriqlarni bajarishga, shuningdek, 2015 yilda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni jadallashtirishga yo'naltirilgan faol investitsiya siyosatini amalga oshirishga, Aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi ko'rsatkichlarning bajarilishi va sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishini ta'minlashga qaratdi.

2015 yilda temir yo'l stansiyalaridan 67,7 mln. tonna yuk orilib, o'z manziliga etkazib berilgan. Bu 2014 yilning hisobot davriga nisbatan 102,5 foizni tashkil etdi. Hisobot davrida 20,7 mln. yo'lovchi o'z manzillariga etkazildi.

Shuningdek, o'tgan yili 347,7 mln. AQSh dollari miqdorida eksport xizmatlari ko'rsatilganligi, hisobot davrida Aksiyadorlik jamiyatining sanoat korxonalarida taqqoslama narxlarda 388,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilganligi ham yig'ilishda ta'kidlab o'tildi.³

Temir yo'l transporti tarmog'ida "O'zbekiston temir yo'llari" Aksiyadorlik jamiyatida 2008-2015-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish to'g'risida" Dastur qabul qilingan. Ushbu dasturda O'TY AJ korxonalarida boshqaruv tuzimiga zamonaviy texnika va texnologiyalari kiritishi nazarda tutilgan. Ushbu dasturning tatbiq etilishi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy kaliti

³ Poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida "O'zbekiston temir yo'llari " aksiyadorlik jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining 2015 yil yakunlari va 2016 yildagi rejalari" mavzusiga bag'ishlangan matbuot anjumanidagi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruvi raisi o'rinbosari Ravshan Ikromovning ma'ruzasi

hisoblanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mavzuning dolzarbligi bu korxonada bozor iqtisodiyotida axborot tizimini rivojlantish, buning natijasida ish sifati, hajmini oshirish, vaqtdan samarali foydalanishni takomillashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun bitiruv malakaviy ishining mavzusi bo'lib O'TY AJ sanoat korxonalarining birida ya'ni "O'ztemiryo'lmashta'mir" Unitar korxonasida "Axborot tizimi moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarining shakllanishi" deb nomlanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki Temir yo'l korxonalarida bitiruv malakaviy ishining o'rganish ob'yekti bo'lib, temir yo'l transporti sanoat korxonasi ya'ni "O'ztemiryo'lmashta'mir" UK si olingan..

Bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad "O'ztemiryo'lmashta'mir" Unitar korxonasida zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari asosida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish texnologiyalarini o'rganish va tahlil qilishdan iborat.

Maqsaddan kelib chiqqan holda mavzuni yoritishda quyidagi vazifalar yechildi:

- 1.Korxonada buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarini yuritish jarayonlarini o'rganish;
2. "O'ztemiryo'lmashta'mir" Unitar korxonasida foydalaniladigan axborot tizimlari va texnologiyalarini o'rganish va tahlil qilish;
- 3 .Buxgalteriya hisobi va hisobotini qayta ishlash texnologiyalarining zamonaviy holatini o'rganish;
4. "O'ztemiryo'lmashta'mir" Unitar korxonasida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan tarzda yuritish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.

Mavzuni yoritish bo'yicha quyidagi qonuniy va me'yoriy hujjatlar axborot

manbalari sifatida ko'rib chiqilda va o'rganildi:

- “Buxgalteriya to'g'risida”gi Qonun;
- Buxgalteriya hisobining milliy andozalari;
- Temiryo'l transporti faoliyatida tegishli qonuniy va me'yoriy hujjatlar;
- Korxonaning ustavi
- “O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar korxonasining 2013-2015 yil

buxgalteriya va moliyaviy hisobotlari.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob'yekti, predmeti va axborot manbalari aks ettirilgan.

Birinchi bob ““O'ztemiryo'lmashta'mir” UK da buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining tahlili bo'lib, unda “Oztemiryo'lmashta'mir” UK da buxgalteriya hisobini yuritish xususiyatlari va hisob siyosati, “O'ztemiryo'lmashta'mir” UKning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarining tahlili keltirilgan.

““O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar Korxonada buxgaltreriya hisobi”deb nomlanadigan ikkinchi bobda “O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar Korxonada buxgaltreriya hisobi axborot tizimlarining o'rne va mohiyati, “O'ztemiryo'lmashta'mir” da buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining holati va tahlili jarayoni ko'rib chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi – ““O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar korxonasida moliyaviy ko'rsatkichlari axborot tizimlarida tatbiq etish samaradorligi” deb nomlanib, Buxgalteriya hisobi va axborot tizimlarida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari “O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar korxonasi misolida hisoblab va ularni tahlil qilish asosida tavsiyalar berildi

I Bob. “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining axborot tizimlari va uning tahlili

1.1 “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasi faoliyatining iqtisodiy-moliyaviy ko`rsatkichlari tahlili

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 18 yanvardagi qarorida respublika Temir Yo`l transportining harakatdagi tarkibini va boshqa texnikasini kapital ta`mirlash ehtiyojlarini yanada to`laroq ta`minlash, ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish va Temir Yo`l transportini ular bilan ta`minlash maqsadida temir yo`l transportini ta`mirlash zavodi “O`ztemiryo`lmashta`mir” ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etilgan.

Uning tarkibiga Toshkent teplovoz ta`mirlash zavodi (bosh korxona), Andijon mexanika zavodi va Quyuv mexanik zavodi kiradi.

Korxonaning moliyaviy, iqtisodiy va boshqa o`zaro munosabatlarining huquqiy asosi bo`lib O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, tuzilgan xo`jalik shartnomalari, kompaniya boshqaruvining buyruqlari va farmoyishlari, korxonaning ustavi hisoblanadi.

Korxona mahsulotining asosiy nomenklaturasi teplovoz va elektrovozlarni ta`mirlash, jumladan xizmat muddatini uzaytirishga mo`ljallangan ta`mirlash; yopiq vagonlarni, tisternalarni, bug`li g`ildiraklarni ta`mirlashni tashkil etadi.

2015 yil 5-aprel №187-N nomli “O`zbekiston temir yo`llari” AJ tomonidan tasdiqlangan Nizom bo`yicha “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasi va uning Andijon mexanika zavodi va Quyuv mexanika zavodi sho`ba korxonalariga quyidagi ishlab chiqarish va iqtisodiy ko`rsatkichlar tasdiqlangan:⁴

⁴ 2015 yil 5-aprel №187-N nomli “O`zbekiston temir yo`llari” AJ tomonidan tasdiqlangan Nizom

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi natural birligida;
- Tovar mahsulot hajmi pul birligida;
- Tovar mahsulot tannarxi;
- Tovar mahsulot 1 so`mga ketgan xarajati;
- Xodimlarning o`rtacha ro`yhatdagi soni shu jumladan sanoat ishlab chiqarish xodimlar soni;
- Mehnat unumdorligi;
- Aholiga pulli xizmat ko`rsatish hajm ko`rsatkichlari;
- Eksport va import hajmi.

Moliyaviy ko`rsatkichlar tarkibi:

- Sanoat mahsulotlari realizatsiyasidan tushgan daromad;
- Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va realizatsiya bo`yicha xarajatlar;
- Sanoat ishlab chiqarish foydasi ;
- Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad;
- Foyda solig`i.

Yuqoridagi ko`rsatkichlarni hisobga olgan holda 1.1-jadvalda “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining ishlab chiqarish ko`rsatkichlari 2014-2015 yil ma`lumotlari berilgan.

1.1-jadval

“O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining ishlab chiqarish ko`rsatkichlari *

Ko`rsatkich	Hisobot		Farqi (+, -)	O`zgarish (%)
	2014 y	2015 y		
1. Ishlab chiqarish hajmi (mln. som)				
2.Xalq iste`moli uchun ishlab chiqarilgan tovarlar (mln.som)				
3.Aholi uchun pulli ish xizmatlar (mln.som)				
4.Lokalizatsiya dastursiga asosan loyiha (mln.som)				
5. Ishchilar soni (kishi)				

6. O`rtacha oylik ish haqi (ming som)				
7. Mehnat unumdorligi (mln.som)				

* Manbaa: “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasning 2014-2015 yil yakunlari bsoh direktorining ma`ruzasi

1.1-jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, 2015- yilda korxonada ishlab chiqarish hajmi 84.3 mln.so`mni tashkil qilgan. Bu ko`rsatkich o`tgan yilga nisbatan 0.01% ga kamaygan. Korxona xalq iste`moli uchun 45.2 mln so`mlik Tovar ishlab chiqarilgan, 2014-yilga nisbatan 122.5% ni tashkil qilgan. Xalq iste`moli uchun chiqarilgan tovarlar tarkibiga metal ijara (eshik, panjara) va yog`och mahsulotlari (kravat, eshik )Aholi uchun pulli xizmatlari 941.1 mln.s 100% reja bajarilgan, o`tgan yilga nisbatan 102.6 ga oshgan. 2015yil lokalizatsiya dastursiga asosan 6 ta 1317.0 mln. So`mlik loyiha ishlab chiqarildi va bu korsatkich 2014-yilga nisbatan 135.3 % ga oshgan. Hisobot yilida korxonada 1084 ta ishchi xodim ishlaydi, 2014-yilga nisbatan ishchilar soni 16.8% ga tushib ketgan. O`rtacha oylik ish haqi 1170.0 ming so`m o`tgan yilga nisbatan 101.2% ga oshgan. Mehnat unumdorligi o`tgan yilga nisbatan 18.8% ga oshgan.

“O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining 2015 yil yakunlari bo`yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1.2-jadvalda keltirilgan.

1.2-jadval

“O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining 2015 yil asosiy ishlab chiqarilgan mahsulotlar nomenklaturasi *

Iste`molchilar	Mahsulot va ta`mirlash ish turi	Soni
“O`zbekiston Temir yo`llari” AJ	Teplovozlar	97 seksiya,
Sanoat korxonalari(NTMK, Navoiy, Azot, O`zbekko`mir)	Teplovozlar	6 seksiya
“O`zbekiston Temir yo`llari” AJ	Elektrovoz- BL60S KVR hajmda	1ta kuzov
“O`zbekiston Temir yo`llari” AJ	Elektrovoz- BL60S KVR hajmda	3 ta kuzov

“O`zbekiston Temir yo`llari” AJ	Elektrovoz-PE24 VPRSShajmda	1ta kuzov
“O`zbekiston Temir yo`llari” AJ	Yo`lovchi vagon	8 ta
“O`zbekiston Temir yo`llari” AJ	Yarim ochiq vagonning- muddati 11 yilga uzaytirilib qayta ta`mirlangan	24ta
“O`zbekiston Temir yo`llari” AJ	Yopiq vagonlar- vagonlar xizmat muddati 5yilga uzaytirilib qayta ta`mirlangan	14 ta
“O`zbekiston Temir yo`llari” AJ	G`ildirak juftliklari	2449ta

Korxona buxgalteriya hisobi amaldagi O`zbekiston Respublikasi qonunlari asosida olib boriladi.

O`zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to`g`risida»gi Qonuniga muvofiq, yillik moliyaviy hisobot quyidagi shakllardan iborat bo`lishi shart:

- buxgalteriya balansi – 1-shakl;
- moliyaviy natijalar to`g`risida hisobot – 2-shakl;
- pul oqimi to`g`risida hisobot – 4-shakl;
- xususiy kapital to`g`risida hisobot – 5-shakl;
- eslatmalar, hisoblar va izohlar.⁵

Korxonada O`zbekiston Respublikasida tasdiqlangan qonun va milliy standartlar asosida buxgalteriya hisobi yuritiladi. Korxona aktiv va passivi agregatlari buxgalteriya balansi 1.3-jadvalda ko`rsatilgan.

1.3-jadval

“O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasi umumlashtirilgan balansi*

Ko`rsatkichlar	Hisobot ma`lumotlari			Farqi (+,-)	O`zgarish (%)
	2013	2014	2015		

⁵ O`zbekiston Respublikasi « Buxgalteriya hisobi » to`g`risidagi qonun. – Toshkent, 1996 yil 30 avgust

1. Aktiv, - Jami shu jumladan					
- Uzoq muddatli aktivlar					
- Joriy aktivlar					
2. Passiv, - Jami shu jumladan					
- O`z mablag`lari manbalari					
- Majburiyatlar					

* Manbaa: Korxona moliyaviy hisobot ma'lumotlari

1.3-jadval ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Jami balans tarkibida aktiv 2015 yil 2014- yilga nisbatan 9.7 foizga kamaygan. Bunga uzoq muddatli aktivlar 5.3 % ga ijobiy va joriy aktivlar 15.3% ga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Jami balans tarkibida passiv hisobot davrida o'tgan yilga nisbatan 9.7 % foizga kamaygan. Bunga o'z mablag`lari manbalari 2.5 % ga ijobiy va majburiyatlar 31.1% ga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Moliyaviy hisobotning 2-shakli moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot deb nomlanib, unda xo'jalik yurituvchi su'yektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir.⁶

Moliyaviy natijalar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy moliyaviy natijada olingan daromad qilingan xarajat summadan yuqori bo'ladi va uni foyda sifatida tan olinadi. Moliyaviy natijada qilingan xarajat olingan daromad summasidan ortib ketsa, u zarar hisoblanadi. Ammo moliyaviy natijaning qator ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, ularning barchasi moliyaviy

⁶ "Moliyaviy hisobot shakllari va ularning to'ldirilishi bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'i 2002 yil 27 dekabr

natijalar to'g'risidagi hisobotda o'z aksini topadi va ushbu hisobot davridagi daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi oraliq va yakuniy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mohiyati shundan iboratki, u korxona faoliyati to'g'risidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirish bilan birgalikda uning samaradorligi va moliyaviy barqarorligini tavsiflash uchun zarur ma'lumotlarini ham o'zida aks ettiradi. Agar buxgalteriya balansi korxonaning mol–mulki mablag'lari kapitali va majburiyatlari, ya'ni korxonaning ishlab chiqarish vositalari va mehnat predmetlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam qilsa, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotiga korxonaning mehnat vositalari predmetlari va ishchi kuchidan foydalanish natijasida olingan ko'rsatkichlarni beradi. Shuning uchun ham uning ma'suliyatlari tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun birday ahamiyatlidir.

Korxonaning moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotning 3 yillik (2013-2015)ma'lumotlari asosida 1.4- jadvalda quyidagi ko'rsatkichlar keltirilgan.

1.4-jadval

“O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar korxonasi moliyaviy natijalari ko'rsatkichlari*

Ko'rsatkichlar	Hisobot ma'lumotlari			Farqi (+,-)	O'zgarish (%)
	2013	2014	2015		
1. Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)					
2. Moliyaviy faoliyat daromadlar					
3. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)					

4. Hisobot davrining sof foydasi					
----------------------------------	--	--	--	--	--

* Manbaa: Korxona moliyaviy natijalar tog'risidagi hisobot ma'lumotlari

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, asosiy faoliyatning foydasi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 94.4%ga va moliyaviy faoliyat daromadlari 4.2% ga oshgan. Bundan tashqari umumxo'jalik faoliyatining foydasi 143.1 % ga va hisobot davrining sof foydasi 184.3 % ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

1.2“O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar korxonasi buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining holati va tahlili


Iqtisodiyotni boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munosabatlariga o'tish buxgalteriya hisobini tashkil qilish va olib borishga katta ta'sir ko'rsatadi. Har qanday iqtisodiy ob'ekt boshqarish faoliyatini asosini murakkab qurilishga ega bo'lgan axborot tizimlari tashkil qiladi.

Boshqaruv jarayonida buxgalteriya hisobi katta rol o'ynaydi, bu yerda barcha axborotlarning 60% ga yaqini jamlangan. Buxgalteriya hisobining axborotli tizimlari an'anaviy ravishda vazifalarning quyidagi majmualarini o'z ichiga oladi: asosiy vositalar hisobi, moddiy boyliklar hisobi, mehnat va ish haqi hisobi, tayyor mahsulotlar hisobi, moliyaviy hisoblash operatsiyalarining hisobi, ishlab chiqarish harajatlari hisobi, yig'ma hisob va hisobotlarni tuzish. SHK lar bazasida avtomatlashtirilgan ish joylarining tashkil qilingan, korxonalarda mahalliy hisoblash tarmoqlarini yaratish, axborot bazasini tashkil qilish va iqtisodiy vazifalar majmuasini shakllantirishda yangi talablarni ilgari surdi.

Ma'lumotlarni taqsimlash bazalari tizimini yaratish, turli foydalanuvchilar

o'rtasida axborotlarni almashtirish, kompyuterda boshlang'ich hujjatlarni avtomatik shakllantirishning imkoniyatlari paydo bo'ldi va boshqaruv masalalarining vazifalararo majmualari vujudga keldi.

“O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining iqtisodiy mexanizmini funkcionallashtirish jarayonida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va moliyaviy nazoratning o'zaro uzviy bog'liqligi va bunday tizim qaror qabul qiluvchi xodimlarning va xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'lanishiga xizmat qiladi (2.1.-rasm)



1.1-rasm. Buxgalteriya hisobi axborot tizimlaridan foydalanish sharoitida korxonani boshqarishning umumlashtiruvchi chizmasi⁷

⁷ Manba: B.A. Begalov, S.M. Sultanova. Buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan tizimlarini tadqiqot qilish va takomillashtirish. Monografiya. T., 2009 yil.

IAQIAT texnologik jarayonining bosqichlari va operatsiyalarini bajarish usullari *

Texnologik jarayon bosqichlari	Operatsiyalar nomi	Operatsiyalarni bajarish usullari
Dastlabki bosqich	1.Boshlang'ich ma'lumotlarni to'plash 2.Boshlang'ich ma'lumotlarni qayd etish 3. Ma'lumotlarni ishlash markaziga uzatish	1.Qo'lda hisoblash; 2.Uzatkichlardan foydalanib avtomatik tarzda hisoblash; 3.Hujjatlardan qo'ldan ko'chirma. 1.Qayd etish vositalardan foydalanib, hujjatlarni shakllantirish; 2.Hujjatlar va mashina tashigichlarni bir vaqtda shakllantirish; 1.Hujjatlarni choparlar orqali jo'natish; 2.Axborotni mashina tashigichlarda choparlar orqali uzatish; 3.Aloqa kanallari bo'yicha bevosita EHMga uzatish.
Yordamchi bosqich	4.EHMda mashina tashigichlarni tayyorlash 5. Manumotlarni EHMga kiritish	1.Ma'lumotlarni hujjatlardan magnit tashigichlarga o'tkazish va ularni nazorat qilish; 1. Klaviatura yordamida xotiraga kiritish; 2.Mashina tashigichdan kiritish; 3.Aloqa kanali orqali berilgan axborotni EHMga avtomatik tarzda kiritish.
Asosiy bosqich	6.Ma'lumotlarni qayta ishlash va yakuniy axborotni chiqarish 7.Yakuniy axborotni uzatish	1. Ma'lumotlarni ishlash va natijani qog'oz bosmaga chiqarish; 2. Ma'lumotlarni ishlash va natijani mashina tashigichlarga chiqarish; 3. Ma'lumotlarni ishlash va natijani videogramma orqali chiqarish; 4. Ma'lumotlarni ishlash va natijani aloqa kanali bo'yicha uzatish uchun chiqarish. 1.Mashinogrammalarni chopar orqali uzatish; 2.Aloqa kanallari orqali ekranga berish; 3. Aloqa kanallari orqali mashina tashigichlarga berish; 4. Aloqa kanallari orqali grafotuzuvchiga berish.

*Manbaa: Manba: B.A. Begalov, S.M. Sultanova. Buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan tizimlarini tadqiqot qilish va takomillashtirish. Monografiya. T., 2009 yil.

Buxgalteriya Axborot tizimi -bu iqtisodiy axborotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlari (IAQIAT)ni rivojlantirishning eng yuqori darajasi bo'lib, bunda tizim yakunlovchi axborotni berish bilan cheklanadi,

qo'yilgan vazifalardan eng ko'p samara olish uchun boshqaruv yechimlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.⁸

Va nihoyat, o'zi o'rganadigan tizimlar eng yuqori aqliy daraja hisoblanadi. Beshinchi va oltinchi avlod kompyuterlari paydo bo'lishi bilan bunga erishish mumkin bo'ladi. IAQIATni turli belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin. Masalan, boshqaruv darajasiga ko'ra - iqtisodiyot, tarmoq, korxona, ishlab chiqarish uchastkasi darajasida .

Texnologik jarayonning barcha bosqichlari va operatsiyalarida axborot yuqori darajada ishonchli bo'lishi hamda saqlanishi uchun nazorat operatsiyasi amalga oshiriladi (2.1.-jadval). Ma'lumotlarni mashinada ishlash amaliyotida nazoratning ko'z bilan kuzatish nazorati, bevosita qiyoslash nazorati, takrorlash uslubidagi nazorat, nazoratning balans uslubiyati, nazorat jamlanmalari (raqamlari) bo'yicha nazorat va hokazolar qo'llaniladi.

Texnologik jarayonning barcha operatsiyalari SHK da bitta ish joyida va uning tuzilishiga ko'ra izchillik bilan bajariladi. SHK da bajariladigan texnologik jarayonida quyidagi uchta jarayoni:

- tayyorlov;
- boshlang'ich;
- asosiyni ajratish mumkin.

Tayyorlov bosqichi dastur va ma'lumotlar bazasini ishga tayyorlash bilan bog'liq. Hisobchi mashinaga korxonaning ma'lumotnomaviy ma'lumotlarni kiritadi, buxgalteriya schyotlarining rejasi va namunaviy buxgalteriya yozuvlarining tartibiga tuzatishlar kiritadi.

Boshlang'ich bosqichi birlamchi hujjatlarni yig'ish va ro'yxatga olish bilan bog'liq. Avval ta'kidlaganidek hujjatlarni qo'lda yoki avtomatlashtirilgan

⁸ Sultanova S.M., Turaev F.K. Buhgalteriya hisobini avtomatlashtirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TTIMI, 2011 y.

usulda shakllantirish mumkin. Hujjatlarni kiritish dasturi quyidagi vazifalarni bajarishni ko'zda tutadi:

- kiritilgan hujjatlarga nomer berish, ko'chirmaning sanash va boshqa alomatlari bilan registrini tuzish;
- kiritilgan hujjatlarga ma'lumotnomaviy va shartli doimiy alomatlarni avtomatik kiritish;
- xo'jalik operatsiyalarining qayd etish daftarida buxgalteriya yozuvlarini avtomatik bajarish;
- noto'g'ri hujjatlarni chiqarib tashlash;
- noto'g'ri hujjatlarni nazorat qilish va tuzatish kiritish;
- birlamchi hujjatlarni bosib chiqarish.

Asosiy bosqich ishning tugallovchi bosqichi bo'ladi va har xil hisobot shakllarini olish bilan bog'liq. Uni bajarish uchun «moddiy boyliklarning qaydnomasi», «Aylanish qaydnomasi» va «Hisobotlar» menyusi modulidan foydalaniladi.

“O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar korxonasida 2004-yilda “1С:Предприятия 7.7” dasturi va 2012- yilda “1С:Предприятия 8.2” dasturi o'rnatilgan. Korxonada soliq hisobotlari “Hisobot.uz” sayti orqali va statisti ma'lumotlar “Estat.uz” dasturi orqali yuboriladi. Bundan tashqari korxonada “Norma” dasturi o'rnatilgan bo'lib, unda me'yoriy-huquqiy qonunlar bilan tanishish mumkin.

“1С:Предприятия ” dasturi buxgalteriya hisobini olib borish, korxona faoliyatida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun mo'ljallangan.

Dasturda ishlash uchun dastlabki ma'lumotlar elektron ko'rinishda taqdim etiladigan buxgalteriya o'tkazmalari, xo'jalik operatsiyalari kitobiga foydalanuvchi tomonidan kiritishlar, mavjud oddiy shakllar hisoblanadi.

Xo'jalik operatsiyasi kitobiga ma'lumot kiritish amaliy chegaralanmagan

daraja ostidagi miqdordan: subschyotlar (1-darajali schyotlar) va analitik hisob schyotlari ya'ni subkont (3-darajali va quyi schyotlar) dan tashkil topgan ishchi reja schyotlari bilan bog'liq holda foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladi. U yoki bu sintetik schyotning analitik hisobini kiritish uchun unga oldindan aniqlangan subkont turini «bog'lash»ni amalga oshirish kerak. Bundan so'ng, provodka kiritish jarayonida dastur avtomatik ravishda sizga provodkaga tegishli bo'lgan ro'yxatdagi mos keluvchi obyektни tanlashni taklif etadi.

Analitik obyektlarning pul ko'rinishida aks etishidan tashqari shuningdek natura ko'rinishida hisobni olib borish imkoniyati dasturda ko'rilgan, masalan, TMZ harakati ko'rinishida.

Schyotlarga o'tkazma kiritish paytida miqdoriy hisob olib borish uchun dastur avtomatik ravishda miqdori va summasini so'raydi, bunda ushbu schyotlar bo'yicha qoldiqlar natura va qiymnat ko'rinishida hisoblanadi. Shuningdek, subkonto ro'yxatidagi har bir aniq obyekt bo'yicha ularning ma'lumot xarakteri va hisobi va qatnashmaydiganlar hisobiga ega bo'lgan individual xarakteri aks etgan imkoniyati ko'riladi. Masalan, tashkilot uchun uning yuridik adresi, bankdagi hisob-kitob schyoti va shunga o'xshashlarni ko'rsatish mumkin. Tovar uchun – artikul, kod OKDO (schyot-faktur uchun) va hokazolar.

Xo'jalik kitobida sortirovka operatsiyalari vaqt, hisob debeti, yig'indi yoki qisqa ma'lumotlar (mos sortirovka rejimlari (F2), (F3), (F4) i (F5) klavishlari yordamida amalga oshiriladi) bo'yicha qilinadi.

“1С:Предприятия ” dasturiga kirish ish stoliga sichqoncha bilan 1S belgisiga 2 marta bosish, yoki Pusk→ Dastur → 1S: Buxgalteriya funksiyalari orqali bajariladi.

«Upravlenie» paneli quyidagi bir qancha piktogrammalardan iborat:

- ixtiyoriy jurnallarning biriga yangi yozuv kiritish;
- hujjatdagi tekstga o'zgartirish kiritish;
- yozuv yoki provodkadan nusxa olish;
- yozuv yoki provodkani o'chirish;
- izlash;
- buferni nusxa qilish va qirqish;
- buferdan qo'yish;
- buferga qo'yish;
- buferdan olish;
- hujjatni bosmadan chiqarish;
- hujjatni izlash;
- oldinga izlash;
- orqaga izlash;
- kalkulyator;
- ma'lumotlar tablosi;
- Hisob tablosi;
- Dastur bo'yicha yordam;
- Chiqish.

Operatsiya paneli quyidagi bir qancha piktogrammalardan iborat:

- operatsiya jurnali;
- hisoblar rejasi;
- subkonto turlari;
- valyuta;
- o'zgarmaslar;
- hujjatlar va gaydnomalar;
- operatsiyalar oralig'i;
- operatsiyalarni ko'chirish;

- operatsiyalarni o'chirish;
- operatsiyalar jurnalida raqamni o'zgartirish;
- chiqish.

Hisobot paneli quyidagi bir qancha piktogrammalardan iborat:

Ishlab chiqarishning asosiy hisobotlari operatsiyalar jurnalida:

- hisob aylanmasi;
- jamlanuvchi o'tkazmalar;
- shaxmatka
- aylanma-qoldiq qaydnomasi;
- hisob tahlili;
- hisob varaqchasi;
- ixtiyoriy hisobotlar;

Masalan, OPERATSIYALAR da operatsiyalar jurnaliga kirish uchun sichqoncha kursorini kerak joyga qo'yib bosiladi va hokazo.

Servis paneli quyidagi bir qancha piktogrammalardan iborat:

- umumiy parametrlar;
- hisobotlar parametri;
- hisobotlarni kompyuterda terish parametrlari;
- printer;
- ma'lumotlarni saqlash;
- ma'lumotlarni tiklash;
- hujjatlar arxivi;
- parol o'rnatish;
- kalkulyator;

Yakuniy o'tkazmalar ro'yxati deganda, biz biror vaqt mobaynida hisoblar aylanmasi orasidagi (bir hisobning debetiga ikkinchisining krediti haqidagi) hujjat tushuniladi. Bunda ro'yxat debet yoki kreditlar hisob raqamlarining

o'sish tartibida chiqariladi. Ma'lumotlarni chiqarish mos ravishda (F3) yoki (F4) tugmalarini bosish yordamida bajariladi.

Shunday qilib, 2015- yilda korxonada ishlab chiqarish hajmi 84.3 mln.so`mni tashkil qilgan. Xalq iste'moli uchun 45.2 mln so`mlik Tovar, Aholi uchun pulli xizmatlari 941.1 mln.somlik xizmatlar bajarilgan. Lokalizatsiya dastursiga asosan 6 ta 1317.0 mln. So`mlik loyiha ishlab chiqarildi. Hisobot yilida korxonada 1084 ta ishchi xodim, O`rtacha oylik ish haqi 1170.0 ming so`mni tashkil qilgan.

“O`ztemiryo`lmashta'mir” Unitar korxonasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar O`zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik asosida olib boriladi. Korxonada 2004-yildan “1С:Предприятия” dasturi asosida buxgalteriya hisobi yuritiladi. Hozirgi paytda “1С:Предприятия 8.2 ” versiyasi tatbiq etilgan.

II Bob. “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasida buxgalteriya hisobi

2.1 “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining o`rni va mohiyati

Insonning axborotni qayta ishlash bo'yicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish - axborotlashtirish sanoatini jadal rivojlantirishni talab etuvchi eng muxim texnik, iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Iqtisodiyotda axborot texnologiyalaridan foydalanish iqtisodiy axborotlar sifati, uning aniqligi, ob'ektivligi, tezkorligini va buning natijasi sifatida esa boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilish imkoniyati oshishini ta'minlaydi.

«Tizim» deganda bir vaqtning o'zida ham yagona yaxlit deb qaraladigan har qanday ob'ekt, ham qo'yilgan maqsadlarga erishish manfaatlarida birlashtirilgan turli elementlar majmui tushuniladi. Bu keng tarqalgan va juda ko'plab ma'nolarda qo'llaniladi. Axborot tizimlariga nisbatan qo'llanilganda aksariyat hollarda texnik vositalar va dasturlar to'plami nazarda tutiladi. Kompyuterning faqat apparat qismini tizim deb atash mumkin. Muayyan amaliy vazifalarni bajarish uchun hujjatlarni yuritish va hisob-kitoblarni boshqarish jarayonlari bilan to'ldirilgan ko'plab dasturlarni ham tizim deb hisoblash mumkin.

Axborot tizimining maqsadi - muayyan professional faoliyat bilan bog'liq bo'lgan professional axborot ishlab chiqarish. Axborot tizimlari har qanday sohadagi vazifalarni hal qilish jarayonida zarur bo'ladigan axborotni to'plash, saqlash, ishlov berish, chiqarib berishni ta'minlaydi.⁹

⁹ Sultanova S.M., Turaev F.K. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TTIMI, 2011 y.

Axborot tizimi - qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida axborotni to'plash, saqlash, ishlov berish va chiqarishda foydalaniladigan vositalar, usullar va xodimlarning o'zaro bog'liq majmui.

Bugungi kundagi zamonaviy axborot tizimi tushunchasi axborotga ishlov berishning asosiy texnik vositasi sifatida shaxsiy kompyuterlardan foydalanishni ko'zda tutadi. Yirik tashkilotlarda shaxsiy kompyuterlar bilan bir qatorda axborot tizimining texnik bazasi tarkibiga meynfreym yoki super elektron hisoblash mashinalari kirishi mumkin. Bundan tashqari, agar ishlab chiqarilayotgan axborot foydalanuvchisi bo'lgan va usiz bu axborotni olish va taqdim etish mumkin bo'lmagan odamning roli hisobga olinmas ekan, axborot tizimi texnikaviy timsolining o'zi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmay qoladi.

Kompyuterlar va axborot tizimlari o'rtasida farq mavjudligi ravshandir. Kompyuterlar ixtisoslashgan dasturiy vositalar bilan jihozlangan bo'lib, axborot tizimlari uchun texnikaviy baza va vosita hisoblanadi. Kompyuterlar va telekommunikatsiyalar bilan ish olib boradigan xodimlar har qanday axborot tizimining majburiy tarkibi hisoblanadi.

Axborot tizimlarining qo'llanish sohalari turli-tumandir. SHuningdek, har bir tizimga xos bo'lgan xususiyatlar va o'ziga xosliklar ham turli-tumandir. Muayyan axborot tizimining xususiyatlari majmuini belgilovchi ko'plab omillar orasida uchta asosiy omilni ajratib ko'rsatish mumkin, bular: tizimning texnik darajasi; ishlov berilayotgan axborot xarakteri; axborotning ishlatish maqsadlari, ya'ni ushbu tizim hal qilishda yordam berishi mo'ljallangan vazifalar doirasi. Sanab o'tilgan omillar ham tizimning o'zida, ham foydalanuvchilar uchun taqdim etiladigan axborot shaklining, axborotga ishlov berish jarayonlari xarakterining va tizimning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasining, tizimning algoritmik va dasturiy

ta'minotning tarkibini belgilab beradi.

“O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasi hisob siyosatida joriy faoliyatning istalgan davrida kapitalni, aktivlarni, majburiyatlarni, daromadlar va xarajatlarni baholash imkoniyatini beruvchi axborot tizimini yaratish ko`zda tutilgan. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda «O`ztemiryo`lmashta`mir»UKda hozirgi davrda ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini ta'minlash uchun, buxgalteriya hisobining yuqori sifatli ko`rsatkichlari, dasturiy usullari va shakllari, ularni tashkil etishda ratsional tamoyillarning mavjud bo`lishi zarur.


Buxgalteriya hisobi axboroti korxonada uni tayyorlashda ishtirok etganlarga, korxonadan tashqarida foydalanuvchilarga tushunarli bo`lishi uchun aniq talablarga javob berishi zarur:

- birinchidan, buxgalteriya ma'lumotlari taqqoslash va doimiylik talablarini qondirishi lozim, ya'ni hisob davrida buxgalteriya hisobining har xil turdagi shakllari va usullaridan foydalanib bo`lmaydi;

- ikkinchidan, buxgalteriya ma'lumotlari aniq va ahamiyatli bo`lishi zarur. Vaqtni behuda ahamiyatsiz omillarning hisobiga ketkazish kerak emas, ya'ni agar hisobga olinayotgan manbalar qiymati solishtirma bo`lsa, u holda hisobni soddalashtirish zarur;

- uchinchidan, buxgalteriya hisobi konservativ bo`lishi kerak, chunki buxgalteriya hisobida aks ettiriluvchi xo`jalik faoliyat hodisalari har doim bir xil emas;

- to`rtinchidan, buxgalteriya ma'lumotlari to`liq bo`lishi zarur, unda foydalanuvchi uchun yetarli darajada ma'lumot bo`lishi kerak.



2.1.- rasm.Korxonada integratsiyalashgan axborot tizimlarining funksional tizimchalari tarkibi *

* Manba: B.A. Begalov, S.M. Sultanova. Buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan tizimlarini tadqiqot qilish va takomillashtirish. Monografiya. T., 2009 yil.

Hujjatlarni yaratish, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda ularning aylanmasini ta'minlash vaqt va kenglikka ajratilgan bo'lib, korxonaning integratsiyalashgan axborot tizimining funksional tizimlari yig'indisidan tashkil topgan (2.1.-rasm).

Korxona hujjatlarining aylanmasi rasmda ko'rsatilganidek, 5ta bosqichdan iborat:

- Strategik boshqarish
- Xodimlarni boshqarish

- Tekor boshqaruv
- Buxgalteriya hisobi
- Ishlab chiqarishni boshqarish

Iqtisodiy ma`lumotlarni ishlash tizimi o'z rivojida bir qancha bosqichlardan o'tadi. Birinchi bosqich - bu ma`lumotlarni qo'lda ishlash usulidir. Bunda hisoblashlar qo'lda yoki yordamchi moslamalar (ashyolar)dan foydalangan holda bajariladi. Bu bosqich hisob-kitoblarning nihoyatda sermehnatliligi, hujjatlashtirishning kundan kunga ko'payishi bilan tavsiflanadi.

Ma`lumotlarni ishlash tizimi rivojining qo'ldagi bosqichi -iqtisodiy axborotni ishlashni qisman mexanizatsiyalashdir. Bu bosqichning ikki pog'onasi ajratib ko'rsatiladi. Birinchi pog'onada axborotni ishlashning katta qismi qo'lda, ayrim qismigina klavishli elektron hisoblash mashinalari (KEXM) yordamida bajariladi. Bu pog'onada ma`lumotlarni ishlash usuli va texnologiyasi birinchi bosqichdagiga nisbatan o'zgarmaydi.

Ikkinchi pog'onada axborotning katta qismi elektron hisoblash mashinalari (EHM) yordamida qayta ishlanadi. Bunda axborotni ishlash texnologiyasi muayyan tarzda o'zgaradi, iqtisodiy ma`lumotlar kodlanadi, hisoblashlarning sermehnatliligi nisbatan kamayadi, lekin qo'l mehnati tamoman tugamaydi.

Uchinchi bosqich - bu majmuaviy mexanizatsiyalash bo'lib, bunda axborotni ishlash bo'yicha barcha harakatlar mashinalarda bajariladi. Bu bosqichdagi texnik vositalar majmuiga EHM kiradi. Bunda ildam buxgalter va statistik hisoblarni uzviy birlashtirish ko'zda tutiladi.

To'rtinchi bosqichida ma`lumotlarni ishlashning avtomatlashtirilgan tizimi o'rnini ma`lumotlarni ishlashning shaxsiy elektron hisoblash mashinalardan (ShEHM) foydalanishga asoslangan avtomatlashtirilgan tizimi egallaydi. Qisman avtomatlashtirish bosqichida ayrim vazifalar, uchastkalar yechimi o'zaro bog'lanmay avtomatlashtirilgan ishlarni muvofiqlashtirish va axborotni

ishlash jarayonini boshqarishni odam bajaradi.

Beshinchi bosqich - iqtisodiy axborotni ishlashni majmuaviy avtomatlashtirish bo'lib, bunda hisoblash jarayonining yakunlovchi axborotni to'plashdan o'zgartirishgacha bo'lgan barcha ishlari yagona texnologik jarayonni hosil qiladi va avtomatlashtiriladi. Bu bosqichda iqtisodiy axborotni ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlari hamda umuman turli daraja va xizmatlardagi

Avtomatlashtirilgan ish joyida har bir operatsiya yoki mashina hujjatiga zamonaviy amaliy dasturlar elektron shakllarni tegishli ravishda tadbiq qilinadi. Buxgalterning asosiy vazifasi zaruriy joylarga kerakli rekvizitlarni kiritish va boshlang'ich ma'lumotlarni to'laligini va haqqoniyligini ta'minlashdan iborat.

Hozirgi davrda “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasida barcha buxgalter avtomatlashtirilgan ish joylarida o'rnatilgan amaliy dasturlarda yuqorida ko'rsatilgan funksiyalari bajariladi.

Buxgalter avtomatlashtirish ish joyida pul mablag`larning hisobini, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini, debitorlar va kreditorlar bilan hisoblarni bevosita yuritish imkoniyati mavjud. Hisob jarayonida avtomatlashtirilgan ravishda barcha to'lov hujjatlarni tayyorlash, belgilangan muddatlarda buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va tayyorlash, bosh kitobini va balans hujjatini (barcha ilovalari bilan) tezkor holda tayyorlash va ishlab chiqish mumkin.

2.2 “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasining moliyaviy natijalari buxgalteriya hisobi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi su'yektlarning barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning ijobiy moliyaviy natijalarga erishishiga bog'liq.

Moliyaviy natijalar – xo'jalik yurituvchi su'yektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir.¹⁰ Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, moliyaviy natijalarni aniqlash uchun ma'lum bir davrdagi olingan daromadlar bilan qilingan xarajatlarni taqqoslash, ya'ni olingan daromadlardan qilingan xarajatlarni ayirish lozim.

Moliyaviy natijalar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy moliyaviy natijada olingan daromad qilingan xarajat summadan yuqori bo'ladi va uni foyda sifatida tan olinadi. Moliyaviy natijada qilingan xarajat olingan daromad summasidan ortib ketsa, u zarar hisoblanadi. Ammo moliyaviy natijaning qator ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, ularning barchasi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda o'z aksini topadi va ushbu hisobot davridagi daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi oraliq va yakuniy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Daromad va xarajatlarni taqqoslash orqali quyidagi ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda (zarar); asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar); umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar); moliyaviy faoliyatdan olingan foyda (zarar); soliq to'laguncha bo'lgan foyda (zarar); soliqqa tortiladigan foyda (zarar); favqulodda foyda (zarar); sof foyda (zarar).

Ushbu moliyaviy natija ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega va turli xil maqsadlar uchun qo'llaniladi. Jumladan, ular hisobot davrida korxona

¹⁰ Karimov AA., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. "Buxgalteriya hisobi" darslik Toshkent -2004

faoliyatining samaradorligini baholashda va tahlil qilishda mustaqil o'rinni egallaydi. Ayniqsa samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda foydalaniladigan soliq to'laguncha bo'lgan foyda, mahsulot sotishdan olingan foyda va korxonaning sof foyda ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega.

Korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini to'g'ri aniqlash daromad va xarajatlarni to'g'ri tasniflash bilan bevosita bog'liq.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq korxonalarning xo'jalik faoliyati natijasida oladigan daromadlari quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha guruhlanadi:

- mahsulot sotishdan olingan sof tushum;
- asosiy faoliyatning boshqa (operatsion) daromadlari;
- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;
- favqulodda daromadlar.

Daromadlarning bunday guruhlanishi, korxonaning turli xil faoliyatidan olingan daromadlarini hisobotda alohida ko'rsatish zarurati bilan izohlanadi. Bu korxona faoliyati bilan qiziquvchi tomonlar uchun zarur ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradi.

Korxona faoliyatining sof moliyaviy natijasini aniqlash uchun hisobot davrida qilingan barcha sarf va xarajatlar to'g'ri taqsimlanishi lozim.

Barcha xarajatlar, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga va tannarxga kiritilmaydigan, ammo davr xarajatlari kiritiladigan xarajatlarga bo'linishi zarur.

Davr xarajatlari, soliq to'laguncha bo'lgan foydani hisoblashda inobatga olinadi. Bundan tashqari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda moliyaviy faoliyat va favqulodda holat bo'yicha xarajatlar ham alohida ko'rsatiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda daromadlar olish bilan bog'liq xarajatlarni quyidagi guruhlar bo'yicha ko'rsatish mumkin:¹¹

1-Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

2-Davr xarajatlari;

3-Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;

4-Favqulodda zararlar.

Yuqorida keltirilgan daromad va xarajat moddalari korxona xo'jalik faoliyatining natijalarini aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega. Chunki hisobot davridagi aynan shu daromad va xarajatlarning to'g'ri hisobga olish faoliyati natijalarini aniq hisoblash imkonini beradi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mazmuni shundan iboratki, unda korxona xo'jalik faoliyatining yakuniy va oraliq moliyaviy natijalarini ularning alohida daromad (foyda) xarajat (zarar) ko'rsatkichlarini taqqoslash va qo'shish orqali aniqlanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mohiyati shundan iboratki, u korxona faoliyati to'g'risidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirish bilan birgalikda uning samaradorligi va moliyaviy barqarorligini tavsiflash uchun zarur ma'lumotlarini ham o'zida aks ettiradi. Agar buxgalteriya balansi korxonaning mol-mulki mablag'lari kapitali va majburiyatlari, ya'ni korxonaning ishlab chiqarish vositalari va mehnat predmetlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam qilsa, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotiga korxonaning mehnat vositalari predmetlari va ishchi kuchidan foydalanish natijasida olingan ko'rsatkichlarni beradi. Shuning uchun ham uning ma'suliyatlari tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun birday ahamiyatlidir.

¹¹ "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" 54- sonli Nizom, Toshkent, 1999 yil 5 fevral

Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schotlar (9900) ning bog`lanishi*

N ^o	Xo`jalik muomalalarining mazmuni	Schotlarning bog`lanishi	
		debet	Kredit
1	Asosiy (operatsion)faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlarning yopilishi		
2	Sotilgan mahsulot(Tovar,ish, xizmat)lslr tannarxini hisobga oluvchi schotlarning yopilishi		
3	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schotlarning yopilishi		
4	Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlarning yopilishi		
5	Moliyaviy faoliyatining daromadlarini hisobga oluvchi schotlarning yopilishi		
6	Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schotlarning		
7	9710 << Favqulodda foydalar>> schotining yopilishi		
8	9720 <<Favqulodda zararlar>> schotining yopilishi		
9	Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni tolash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schotlarning yopilishi		
10	Hisobot yilining sof foydasi		
11	Hisobot yilining sof zarari		

*Manbaa: G`ulomova G`.G`. "Buxgalteriya hisobini mustaqil o`rganish uchun qo`llanma"- Toshkent, 2010 yil.

Moliyaviy natijalarni aniqlash va ular to`g`risidagi ma`lumotlar berish moliyaviy hisobot ma`lumotlaridan foydalanuvchilar uchun o`ta ahamiyatlidir. Shuning uchun ham har qanday tuzumda faoliyat yuritayotgan xo`jalik su`yektlar o`z faoliyatlarining moliyaviy natijalarini aniqlaydilar. Albatta bunda mamlakatda amal qilayotgan moliyaviy natijalar hisobi va hisobotini tartibga soluvchi huquqiy va me`yoriy hujjatlar alohida ahamiyatga ega.

Respublikamizda korxona moliyaviy natijasini aniqlashning uslubiyati ishlab chiqilgan bo`lib, u O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

1999-yil 15- fevraldagi 54-son Qarori (yangi tahriri 2003 yilda 444-sonli qaror bilan tasdiqlangan) bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq xo'jalik yurituvchi su'yekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tasniflanadi:

-mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tavofut sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST - IT$$

bunda, YaF - yalpi foyda;

SST - sotishdan olingan sof tushum;

MT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

-asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tavofut va plus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ,$$

bunda,

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;

-xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zararlar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF = AFF + MD - MX$$

bunda,

UF - umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari;

-soliq to'lagungacha olingan foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlarda ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FP - FZ$$

bunda,

STF - soliq to'lagungacha olingan foyda;

FP - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

- yilning sof foydasi, u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi su'yekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan, to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS$$

bunda,

SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq;

BS – boshqa soliqlar va to'lovlar.

Respublikamizdagi barcha korxonalar mulkchilik shakllari va qaysi tarmoqqa tegishliligidan qa'tiy nazar moliyaviy natijalarni aniqlashda ushbu tartib qo'llaniladi.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun buxgalteriya hisobini yuritish standartlariga nisbatan yangi, bozor munosabatlariga to'g'ri keladigan talablarni qaror toptirishni ta'minlaydi hamda O'zbekiston Respublikasidagi

buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etishda zamin bo'ladigan asosiy tamoyillarni ko'zda tutadi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini amalga kiritish zarurati asosan buxgalteriya hisobining bazaviy qoidalari va tamoyillarini tushuntirish va umumlashtirish, asosiy tushunchalarni bayon qilish, u yoki bu buxgalteriya usullarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasida hisobning o'ziga xos xususiyatlarini qo'llashdan iboratdir.

Moliyaviy natijalarni shakllantirish hisobi va ular to'g'risidagi hisobot «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-son BHMA, «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar» nomli 2-son BHMA, «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» nomli 3-son BHMA, «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMA, «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli 19-son BHMA, «Xo'jalik yurituvchi su'yektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma» nomli 21-son BHMAlar me'yoriy asos sifatida qo'llanilishi mumkin.¹²

Foyda quyidagicha taqsimlanadi:

- soliq qonunchiligiga muvofiq davlat byudjetiga soliqlar, yiG'implar va to'lovlarga;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish va zaxiralashga;
- aksiya va kapital egalari dividendlar to'lashga.

Korxona o'zining hisob foydasidan, avvalo, davlat oldida hisob beradi va o'zining ixtiyorida hamda tasarrufida bo'lgan foyda summasini aniqlaydi. Foydadan olingan soliqlar qat'iy stavkalarda va foizlarda undiriladi. Hisob foydasining qolgan qismi korxona sof foydasi sifatida uning erkin belgiloviga (aksionerlar umumiy yig'ilishining qarori va ichki nizomiga) muvofiq taqsimlanadi.

¹² A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov, N.F. Ishonqulov "Moliyaviy va boshqaruv tahlili" –Toshkent, 2005yil.

Mahsulot (ish xizmatlar)ni sotishdan olingan **yalpi foyda** korxonada yaratilgan foydani ifodalaydi. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydani topish uchun mahsulotni sotishdan tushgan sof tushumlardan shu sotilgan mahsulot tannarxini chegirib tashlash kerak, o'z navbatida, mahsulot sotishdan tushgan sof tushumni topish uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan keyin kelgan tushumdan qo'shilgan qiymat soliG'i, aksiz soliG'i, qaytarilgan tovarlar qiymati, xaridorga berilgan skidkalar (chegirmalar) ayirib tashlanadi. Mahsulotni eksport qiluvchi korxonalar eksport tariflarini ham chegirib tashlaydilar. Mahsulotni sotishdan keladigan tushum esa O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga asosan aniqlanadi.

Demak, mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda mahsulot sotishdan tushgan sof tushum bilan sotilgan mahsulot tannarxi orasidagi farqqa teng. Bu farq ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy farq foyda sifatida, salbiy farq esa zarar sifatida e'tirof etiladi.

Daromad schyotlari asosan ikki guruhga bo'linadi. Birinchisi 9000 "Asosiy faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar" va ikkinchisi 9500 "Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar". Ushbu schyotlarda ochiladigan subschyotlar har bir korxonaning ishchi schyotlar rejasida aniq belgilanishi lozim. Daromadlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopish uchun quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari tuziladi.

Debet 9000 "Asosiy faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar"

Debet 9500 "Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar"

Kredit 9900 "Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar"

Ammo korxonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda daromad schyotlarini yopish ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi bosqichda daromad schyotlari tarkibidagi 9040 "Sotilgan

tovarlarning qaytishi” va 9050 “Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar” schyotlar yopiladi, ya’ni ushbu schyotlarning debetidagi summa 9000 schyotining debetiga olib boriladi hamda daromad summasini kamaytiradi. Shundan so’nggina ikkinchi bosqichga o’tiladi va yuqorida keltirilgan buxgalteriya o’tkazmasi orqali olingan daromad summasi 9900 schyotga o’tkaziladi. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini ikki guruhga bo’lish mumkin. Birinchi guruhga asosiy faoliyatning boshqa muomalalaridan olingan foyda summasini kiritish mumkin. Ikkinchi guruhga esa asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini olib borish mumkin. Asosiy faoliyatning boshqa muomalalaridan olingan foyda summasini aniqlash uchun dastlab 9200 “Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar”da olingan foyda summasining qoldig’i aniqlanadi. Shundangi so’ng ushbu qoldiq summa 9300 “Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar”ning foydani hisobga oluvchi schyotlariga o’tkaziladi.

Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarni yopish uchun quyidagi buxgalteriya o’ztkazmasi tuziladi:

Debet 9300 “Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar”

Kredit 9900 “Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar”

Korxonalar foydasi tarkibida favqulodda foydalar summasi ham hisobga olinadi va u 9710 “Favqulodda foydalar” schyotida hisobga olinadi. Ushbu schyotni yopish quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 9710 “Favqulodda foydalar”

Kredit 9900 “Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar”

Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotda aks ettiriladigan daromadlar va foyda summaları yuqoridagi hisob ishlarini bajarish orqali aniqlanadi.

Korxonalar faoliyatida sarflanadigan xarajatlarni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga kiritish uchun ularni hisobga oluvchi schyotlarni yopish bilan bog'liq bo'lgan hisob ishlari amalga oshiriladi. (2.1-jadval) Buning uchun quyidagi schyotlarni yopish talab qilinadi:

9100 "Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlar";

9400 "Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar";

9600 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar";

9720 "Favqulodda zararlar" schyoti;

9800 "Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlar".

Xarajat schyotlarini yopish uchun 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyoti debetlanadi va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishdan oldin yana bir bor daromad va xarajat schyotlaridagi summalar tekshirib chiqiladi va shundan so'ng hisobotni tuzishga kirishiladi.

III Bob. “O`ztemiryo`lmashta`mir” Unitar korxonasida moliyaviy ko`rsatkichlari axborot tizimlarida tatbiq etish samaradorligi

3.1 Buxgalteriya hisobi va axborot tizimlarida iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari va ularni hisoblash usullari

Yirik korxonalarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish muammosi hozirgi zamonning eng muhim vazifalaridan biri bo`lib qolmoqda. Bu avvalambor katta hajmdagi axborotlarni yig`ish, ularga qayta ishlov berish, tahlil qilish va ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilish vaqtida ratsional foydalanishdan iborat.

Korxonada 2 turdagi buxgalteriya tizimi mavjud bo`lishi mumkin:

- an'anaviy (avtomatlashtirilmagan) buxgalteriya tizimi;
- avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimi.

Bu har ikkala buxgalteriya tizimi o`z afzallik va kamchiliklarga ega.

An'anaviy (avtomatlashtirilmagan) buxgalteriya tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

- o`rnatishga osonligi, mavjud operatsiyalar asosining imkoniyatlari;
- tushunish oson va ularni o`zlashtirishga kam vaqt ketadi;
- texnik malaka talab qilinmaydi;
- odatda ular moslashuvchan va tegishli ish talablariga o`zgaruvchan bo`ladi.

Avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimining ham o`ziga xos afzalliklari mavjud. Avvalo, buxgalteriya hisobi axborotlarini aylanmasini tezlashadi, ish unumdorli oshadi, vaqtni iqtisod qilishga imkoniyat yaratiladi. SHuningdek, xodimlar malakasi va kasbiy bilimlari oshadi, avtomatlashtirish

hisobiga xodimlarni qo‘l mehnatidan ozod bo‘ladi, intellektual faoliyat uchun vaqt qoladi. Matematik uslublar va intellektual tizimlarni tadbiq etish hisobiga boshqaruv vazifalarini hal qilishning oqilona variantlari paydo bo‘ladi.

3.1- Jadval

“O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” Unitar korxonasidagi mavjud kompyuterlar*

	Kompyuter turi		Jami soni
	Pentium 4	Boshqalar	
Jami kompyuter soni			
Ulardan ishlaydigan kompyuterlar			
Tarmoqlararo tizimga ulangani			
Internet tizimiga ulangan			
1 C: Предприятия ga ulangan			

*Manbaa: “O‘ztemiryo‘lmashta‘mir”UK si ma‘lumotlari

3.1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonada Pentium 4 kompyuter soni 179 ta, ulardan 171tasi ishlaydi., 6tasi notebookdan iborat. 75ta kompyuter taqmoqlararo tizimga ulangan, 30 ta kompyuter Internetga va 50ta kompyuter 1 C: Предприятия dasturida ishlaydi.

3.2-jadval

“O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” Unitar korxonasidagi tarmoqlararo tizimlar*

Table Control Functionality	Turi va markasi	Avtomatlashtirilgan funksiya	Serverlar soni
-	Superworkstation7045AT	Domen	1
-	Hp ProLian ML370	Fileserver	1
-	ASRock Z97 Pro4	1C Предприятия, Norma	1

*Manbaa: “O‘ztemiryo‘lmashta‘mir”UK si ma‘lumotlari

3.3-jadval

Axborot kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari
(mln.sum)*

Jami pul mablag‘lari	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	Jami
1. Zararli dasturlar va axborot					

tizimlarini bartaraf etish uchun yo`naltirilgan xarajatlar mln.sum					
2. Kompyuter va server uskunalarini sotib olish xarajatlari					
3. Ma'lumot almashinuvini amalga oshirish tashkilotlar xarajatlari (Internet, korporativ tizim va boshqalar)					
Jami xarajatlar					

*Manbaa: "O'ztemiryo'lmashta'mir"UK si ma'lumotlari

3.3-jadval ma'lumotlaridan ko`rinib turibdiki, 2015- yilda Axborot kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirishga yo`naltirishga 6558.3mln.som xarajat ketgan. Ulardan,1-chorakda 2894.0 mln so`m zararli dasturlar va axborot tizimlarini bartaraf etish uchun yo`naltirilgan, 2240.0 mln.som Kompyuter va server uskunalarini sotib olish uchun xarajat ketgan. Bundan tashqari 1-chorakda 465.0mln.som 2-chorakda 959.3 mln.som xarajat ketgan.

Korxonaning moliyaviy faoliyatini shaxsiy elektron hisoblash mashinalari(ShEHM) yordamida majmuaviy tahlil qilishning yo`nalishlaridan biri keltirilgan. Korxonaning moliyaviy holati tahlilini o'tkazish texnologiyasi ekspress-modellashtirishning soddalashtirilgan ko`rinishi bo'lib, o'zgaruvchan sharoitlarda ham foydalanuvchilarga oz kuchi bilan keng ko'lamda namunaviy dasturlar yordamida operativ rejimda hamda kam kuch sarflagan holda tahlil o'tkazish imkoniyatini beradi.

Ushbu uslubiyot buxgalteriya hisobini elektron ko`rinishda yuritish, ya'ni operatsiyalarni yuritish kitobi, joriy davr aylanmalarining har bir schoti bo'yicha va balansni avtomatlashtirilgan tarzda yuritish imkoniyatini beradi. Bu uslub elektron balans ma'lumotlariga asoslanib,

korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi elektron ko'rinishdagi ko'rsatkichlar asosida korxonaning moliyaviy ahvolini baholashga yordam beradi.

Zamonaviy tipdagi ShEHMlarni katta hajmda hisob operatsiyalari bo'lmagan hisob ishlarida samarali qo'llash mumkin. Joriy balansning ShEHM asosida avtomatlashtirilgan ish joyida tuzilishi va yuritilishi uni tayyorlash vaqtini qisqartiradi va mehnattalabligini kamaytiradi, "Buxgalteriya hisobi" tizimchasiga kiruvchi barcha masalalarni o'zaro bog'laydi. Buxgalteriya hisobining barcha schotlari bo'yicha "Sintetik va analitik schotlar va ko'zda tutilgan korrespondensiyalar bo'yicha ma'lumotnoma" ko'rinishidagi korrespondensiyalar jadvalidan foydalaniladigan me'yoriy axborotlar fondi shakllantiriladi. Bunday jadval tuzilishida hisobvaraqlar rejasi asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, balans moddalari va satrlari nomlarining EHM xotirasida saqlanishi ko'zda tutiladi. Buning uchun sintetik schotlar va subschotlar kodlari, xo'jalik operatsiyalarining, bo'limlarning va qoldiq balans satrlarining turlaridan foydalaniladi.

Hisobvaraqlar rejasi va buxgalteriya balans moddalari o'rtasidagi bog'liqlik har bir sintetik schot kodiga balans moddasi raqami to'g'ri keluvchi maxsus jadval yordamida o'rnatiladi va shu asnoda, ShEHM xotirasida balans moddalari ko'rsatkichlari shakllantiriladi.

Buxgalteriya balansini to'ldirishdagi dastlabki ma'lumotlar mashinagarammali registrlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ular schotlarning analitik va sintetik taqqoslama hisobini doimiy va o'zgaruvchan (dastlabki va yakuniy) massivlar asosida taqdim etadi. Yakuniy massivlarning ko'pchiligi oylik buxgalteriya registrlarini tuzish

vaqtda paydo bo'ladi. Shu bilan birgalikda, kompyuter xotirasida aylanma summalarining saqlanishi natijasida chorak, yarim yillik va yillik balanslarni tuzishda zarur bo'lgan ma'lumotlar massivi yig'iladi.

“Bosh kitob” mashinogrammasida korrespondentsiyalashadigan schotlar bo'yicha oborotlar hamda kiruvchi va chiquvchi qoldiqlar chop etiladi.

“Aylanma-saldo balansi” mashinogrammasida har bir sintetik schot bo'yicha joriy davr, kiruvchi va chiquvchi qoldiq aylanmalarining yakunlari ko'rsatiladi. Aylanma-saldo balansibalans schotlari bo'yicha registr-mashinogrammalarini va chiquvchi qoldiq summalarini tayyorlashni nazorat qiladi. Shuningdek, u sintetik schotlarning barchasi bo'yicha aylanmalarni solishtirishda ham foydalaniladi.

“Qoldiq balansi” mashinogrammasi chiquvchi qoldiqlar massivi asosida chop etiladi. Ushbu massiv analitik hisob registrlari, aylanma qaydnomalar tayyorlanishida avtomatik tarzda, alohida schotlar bo'yicha esa bosh kitob ishlab chiqilganda yaratiladi. Mashinogrammada sintetik hisoblar, balans satr raqamalri va butun massiv bo'yicha yakunlar hisoblab chiqiladi (3.4-jadval). Natijalar ma'umot olish maqsadida va “Korxona balansi” – I shaklni to'ldirishda ishlatiladi.

Balansning uchinchi ustuni hisobot davrining boshidagi qoldiq ma'lumotlari asosida va to'rtinchi ustuni hisobot davri oxiridagi qoldiq ma'lumotlariga ko'ra to'ldiriladi. Balans moddalariga bir nechta qoldiq summolari tegishli bo'lishi mumkinligi sabali, aniq moddani shakllantirishda jadvaldan qoldiqlari ma'lum moddaga yig'iladigan schotlarning barcha kodlarini tanlash lozim. Keyin massivdan ushbu summalarini schotlar, subschotlar, analitik hisob moddalari kodlari

bo'yicha yig'ib olish kerak. Balans aktivi va passivi bo'yicha natijalar oraliq natijalar yig'indisi sifatida hisoblanadi (3.5-jadval).

3.5-jadval

Korxonaning yig'ma ko'rinishdagi analitik balansi (ming so'm) *

Balans moddalari	Hisob-kitob	Hisobot davri boshi	Hisobot davri oxiri
1.Uzoq muddatli aktivlar (F)			
2.Joriy aktivlar (Z)			
Balans aktivi bo'yicha (V)			
1O'z mablag'lari manbalari (I)			
2. Majburiyatlar (R)			
Balans passive bo'yicha (B)			

Manba: «O'ztemiryo'lmashta'mir»UK 2015-yil hisoboti

Ushbu jadval «O'ztemiryo'lmashta'mir»UKning 01.01.2011 yil holatiga Buxgalteriya balansi – 1-sonli shakl ma'lumotlari asosida tuzilgan agregatlangan yig'ma balansi bo'lib, unda balans bo'limlari moddalarini shakllantirishda 3.4-jadvaldan qoldiqlari ma'lum moddaga yig'iladigan schotlarning barcha kodlari tanlangan va shu asosda korxona balansi hamda moliyaviy holatini tahlil qilish birmuncha osonlashadi.

3.4-jadvalda 3.5- va 3.6+-jadvallardan foydalangan holda taqqoslama analitik balans tuzilgan.

3.6-jadval

Taqqoslama analitik balans *

Balans moddalari	O'zgarish				Pul mablag'larining o'zgarishi	
	Mutloq		Nisbiy			
	hisobot davri boshiga, ming so'm	hisobot davri oxiriga, ming so'm	hisobot davri boshiga,%	hisobot davri oxiriga, %	Mutloq, ming so'm	Nisbiy, %
1.Uzoq muddatli						

aktivlar (F)						
2.Joriy aktivlar (Z)						
Balans aktivi bo'yicha (V)						
1.O'z mablag'lari manbalari (I)						
2.Majburiyatlar (R)						
Balans passivi bo'yicha (B)						

*Manba: Korxonaning 2015-yil hisoboti

Taqqoslama balans esa korxona ichida balansda aks ettirilgan axborotdan xo'jalik faoliyatining tahlilida, xarajat va yo'qotishlarni qisqartirish uchun zaxiralarni izlashda, korxona tasarrufida qoluvchi foyda hisobidan to'lanadigan jarimalarni yo'qotishda foydalaniladi. U balansda ko'rsatilmagan rejalar va me'yoriy ko'rsatkichlar bilan solishtirishda muhim ahamiyatli hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini takomillashtirish sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish vazifasini qo'yish va hal qilish masalasini axborot tizimlari (AT) bajarib, ularning asosini axborot texnologiyalari tashkil qiladi.

Boshqaruv qarorini qabul qilish jarayoni quyidagilardan iborat:

- axborotni qabul qilish;
- axborotni qayta ishlash;
- boshqaruv qarorini tahlil qilish, tayyorlash va qabul qilish.

Bu jarayonning natijasi bo'lib boshqaruv qarorini tahlil qilish, tayyorlash va qabul qilish hisoblanadi. Boshqaruv qarorining samaradorligi dastlabki ma'lumotlarning qabul qilinishi va qayta ishlash tezkorligiga bog'liq. Buxgalteriya va boshqaruv hisobini avtomatlashtirishning zamonaviy tizimlari yirik hajmda hisobot shakllarini taklif qiladi, ammo

ko'rsatkichlarning tahlili foydalanuvchining o'zi tomonidan amalgam oshirilishi kerak. Quyida hisobning istalgan paytida korxonaning moliyaviy holatini majmuaviy ko'rsatkichlar yordmida tezkor tahlil qilish uslubi berilgan. Bu usul EXCEL jadval protsessori asosida ishlab chiqilgan. (2-ilova). Excel jadvallarda hisoblangan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida ekspress tahlil uslubiyati ishlab chiqilgan (3.7-jadval).

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini baholash ko'rsatkichlari “O'ztemiryo'lmashta'mir” UK <u>1. Korxonaning moliyaviy holati tahlili</u>			
Ko'rsatkich nomi	yil boshiga	yil oxiriga	Me'yoriy ko'rsatkichi
1.1. Korxona ixtiyoridagi mablag'lar summasi			
1.2. Aktivlardagi asosiy vositalar ulushi			
1.3. Asosiy vositalarning faol qismi			
1.4. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti			
1.5. Asosiy vositalar faol qismning eskirish koeffitsiyenti			
1.6. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti			
1.7. Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti			

3.7-jadvalda keltirilgan koeffitsientlar tahlili excel jadvalining keying varoqlarida tahlil qilinadi. (3.8-jadval) ya'ni ushbu koeffitsientni hisoblash tartibi me'yoriy mezon bilan taqqoslama tahlili va uning mohiyati, mazmuni yoritilgan.

Korxonada ko'rsatkichlarni tanlash va kiritish

Ko'rsatkichni tanlash va kiritish			
Joriy likvidlik koeffitsiyenti			
Hisob formulasi			
Buxgalteriya balansi 1-shakl			
Buxgalteriya balansi 1-shakl			
Hisob natijasi			
Yil boshiga	2.0	Yil oxiriga	2.5
Tavsif			
Koeffitsient korxonaning barcha aylanma aktivlar hisobiga umumiy qoplashni tavsiflaydi. Koeffitsientning normative miqdori 1,0-2,0 undan past bo'lsa, unda korxona o'z qisqa muddatli majburiyatlarni joriy aktivlar bilan qoplanmayapti. 2,0 dan yuqori bo'lsa demak korxona o'z qisqa muddatli majburiyatlarni joriy aktivlar bilan qoplanayapti			

3.2 “O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar korxonasida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga qo'llash tartibi

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) – bu MHXS bo'yicha qo'mita boshqaruvi tomonidan qabul qilingan standartlar va tushuntirishlar tizimidir. MHXS ning BHMS ga nisbatan ustunligi moliyaviy tahlilchilar va investorlar uchun moliyaviy hisobotning tushunarligi, taqqoslanishi, ma'lumotlarning shaffofligi, tahlil uchun xarajatlarni kamligi va hokazolar. SHuningdek, milliy buxgalterlarimiz uchun xalqaro tajribani o'rganish hamda BHMSlarini solishtirish imkonini beradi.


Respublikamizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish va yuritish uchun hal qilinadigan muammolar mavjud. Ulardan biri buxgalteriya hisobini MHXS asosida yuritishning huquqiy asosini yaratish maqsadida buxgalteriya hisobi bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish. Bu borada bir nechta me'yoriy huquqiy qonunlar qabul qilindi. Prezidentimizning 24.04.2015 yilgi PF 4720-sonli farmoyishi misol bo'la oladi

3.7-Jadval

Tavsiya qilinayotgan MHXS ni BHMS bilan solishtirma jadvali*

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)- International Financial Reporting Standards (IFRS)	O'zbekiston Respublikasidagi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)
MHXS-23 Qarzlarni bo'yicha xarajatlar	BHMS-24. Qarzlarni bo'yicha xarajatlar hisobi
MHXS-24. Bog'liq tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochish	
MHXS-26. Pensiya rejasi bo'yicha hisob va hisobot	
MHXS-27. Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobot	8-BHMS Qarzlarni bo'yicha xarajatlar hisobi
MHXS-33. Aksiyalar bo'yicha foyda	
MHXS-34. Oraliq moliyaviy hisobot	

*Manbaa: O'zbekiston Respublikasi « Buxgalteriya hisobining milliy standarti ». – Toshkent, 2010 yil



3.1-rasm. Moliyaviy ko`rsatkichlarni tahlil qilish

Hisoblangan “Ekspress tahlil” asosida korxona faoliyatini tavsiflovchi ko`rsatkichlar va koeffitsientlar moliyaviy ko`rsatkichlar modelini tashkil qiladi. Bunda 2 ta bosqichdan iborat, unda moliyaviy ko`rsatkichlar tahlili o`tkaziladi. Tayyorlov bosqichida MHXS-23, MHXS-24, MHXS-26, MHXS-27, MHXS-33 va MHXS-34 xalqaro moliyaviy hisobotlari uchun buxgalteriya balansi moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobotlaridan birlamchi, oraliq, yakuniy ko`rsatkichlar va ma'lumotlar olinadi va ular asosida korxonaning moliyaviy tahlili va likvidlik tahlili avtomatlashtirilgan tarzda foydalanuvchiga zarur bo`lgan muddatda hisoblashi imkoni yaratiladi. Bularning asosiy natijasi moliyaviy hisobotlarning ochiqligidir.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ham yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimida to'laqonli sheriklik o'rnini egallay borishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanish ko'lamlari qanday bo'lishiga hamda bu

texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligini oshishida qanday rol o'ynashiga bog'liq. Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: «Bugungi sharoitda, Internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat» tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga egadir.¹³

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda komputer va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

2015- yilda korxonada ishlab chiqarish hajmi 84.3 mln.so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 0.01% ga kamaygan. Korxona xalq iste'moli uchun 45.2 mln so'mlik Tovar ishlab chiqarilgan, 2014-yilga nisbatan 122.5% ni tashkil qilgan. Xalq iste'moli uchun chiqarilgan tovarlar tarkibiga metal ijara (eshik, panjara) va yog'och mahsulotlari (kravat, eshik)Aholi uchun pulli xizmatlari 941.1 mln.s 100% reja bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan 102.6 ga oshgan. 2015yil lokalizatsiya dastursiga asosan 6 ta 1317.0 mln. So'mlik loyiha ishlab chiqarildi va bu korsatkich 2014-yilga nisbatan 135.3 % ga oshgan. Hisobot yilida korxonada 1084 ta ishchi xodim ishlaydi, 2014-yilga nisbatan ishchilar soni 16.8% ga tushib ketgan. O'rtacha oylik ish haqi 1170.0 ming so'm o'tgan yilga nisbatan 101.2% ga oshgan. Mehnat unumdorligi o'tgan yilga nisbatan 18.8% ga oshgan.

Bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad “O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar korxonasida zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari asosida

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi

buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish texnologiyalarini o'rganish va tahlil qilishdan iborat.

“O'ztemiryo'lmashta'mir” Unitar korxonasida 2004-yilda “1С:Предприятия 7.7” dasturi va 2012- yilda “1С:Предприятия 8.2” dasturi o'rnatilgan. Korxonada soliq hisobotlari “Hisobot.uz” sayti orqali va statisti ma'lumotlar “Estat.uz” dasturi orqali yuboriladi. Bundan tashqari korxonada “Norma” dasturi o'rnatilgan bo'lib, unda me'yoriy-huquqiy qonun va qarorlar bilan tanishish mumkin.

Bugungi kunda yirik korxonalarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish muammosi hozirgi kunning eng nuhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu avvalambor, katta hajmdagi axborotlarni yig'ish, ularga qayta ishlov berish, tahlil qilish va ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilish vaqtida ratsional foydalanishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Korxona moliyaviy–iqtisodiy holati ijobiy bo'lib, ko'rsatkichlarning aksariyati (xalq iste'moli uchun ishlab chiqarilgan tovarlar, aholi uchun pulli xizmatlari, lokalizatsiya dasturi) 2014-yil hisobotiga ko'ra ijobiy natija bilan oshirib bajarilgan ;

- BHAT bilan oson ishlash uchun buxgalterlar operatorlar yordamida qayta tayyorlandi;

- Korxonada BHATga o'tilishi samarali ekanligi o'z isbotini topdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- 1.Korxonaning moliyaviy holatini joriy o'rganish va tahlil qilish uchun bitiruv malakaviy ishida Excel jadval protsessori yordamida ishlab chiqilgan korxona moliyaviy holat ko'rsatkichlarini tadbiq qilish;

- 2.Rejaviy ko'rsatkichlarni korxonaning haqiqiy holatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish;

3. Yordamchi-ko'makdosh faoliyatni kengaytirish, bu faoliyat turidan keladigan foyda va korxona samarasini oshirish maqsadida kommunikatsion texnologiyalar tizimini kengaytirish va bu sohada servisni yaxshilash;

4. Ishlab chiqarilgan ekspress tahlil ko'rsatkichlari korxonada foydalaniladigan 1С: Предприятие amaliy dasturidan foydalanib, ekspress tahlil uslubiyati ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni - Toshkent, 2015
2. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir. – T.: O'zbekiston, 2014. 22-jild.
3. Karimov I.A. Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlagan

islohotlarimizni yangi bosqichga ko'tarish – bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir. 2015. 23-jild.

4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015.
5. O'zbekiston Respublikasi « Buxgalteriya hisobi » to'g'risidagi qonun. – Toshkent, 1996 yil 30 avgust
6. O'zbekiston Respublikasi « Temir yo'l transporti » to'g'risidagi qonun. – Toshkent, 1996 yil
7. O'zbekiston Respublikasi « Axborotlashtirish » to'g'risidagi qonun. – Toshkent, 2010 yil
8. O'zbekiston Respublikasi « Buxgalteriya hisobining milliy standarti ». – Toshkent, 2010 yil
9. Karimov I.A. «O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish natijalari va 2016 yilgi vazifalar to'g'risida» -Toshkent, 2015yil.
10. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasi –Toshkent, 2014 yil.
11. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi- Toshkent, 2014 yil.
12. “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida” 54- sonli Nizom, Toshkent, 1999 yil 5 fevral
13. “Buxgalteriya hisobiga doir nizomlar”-Toshkent,.2014y.
14. Красов А.П. «Бухгалтерский учет основной деятельности железных дорог»- М.Транспорт, 2008 йил.
15. G'ulomova G'.G'. “Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma”-Toshkent, 2010 yil.

16. A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov, N.F. Ishonqulov “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” –Toshkent, 2005yil.
17. Н.И.Силаев, F.K.Абдуллаева “Анализ хозяйственной деятельности предприятий железнодорожного транспорта” –Тошкент, 2010йил.
18. Karimov A, Ismoilov F, Avloqulov A, «Buxgalteriya hisobi» - Toshkent, 2004yil.
19. I. Ochilov, J. Qurbonboev “Moliyaviy hisob” – Toshkent, 2004yil.
20. M. To`laxo`jaeva “Audit” 1, 2 tom. –Toshkent, 2008 yil.
21. Jo`raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va Boshqaruv xisobi. Darslik. –Toshkent, 2007 yil .
22. Jo`raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya xisobi, iktisodiy taxlil va audit. Darslik. –Toshkent, 2007 yil.
23. Jo`rayev M.J., Abduvohidov F.T., Sotiboldiyeva D.A. Moliyaviy va boshqaruv hisob –Toshkent: Iqtisod-moliya darslik. 2010yil.
24. “Moliyaviy hisobot shakllari va ularning to`ldirilishi bo`yicha qoidalarni tasdiqlash to`g`risida” gi O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'i 2002 yil 27 dekabr
25. Vohobov A., Ibrohimov A., Ishonqulov N. “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”,-- Toshkent 2012 y.
26. Toshkent, 2012 yil
27. O.M.Абдуллаев, A.B.Кобулов, Д.О.Абдуллаев,Ж.Я.Исаков. “Автоматизированные информационные технологии в решении экономических задач”.- Тошкент, 2004 г.
28. Sultanova S.M., Turaev F.K. Buhgalteriya hisobini avtomatlashtirish. O`quv qo`llanma. – Toshkent, TTIMI, 2011 y.
29. Sultanova S.M., Buhgalteriya hisobini avtomatlashtirish. Ma`ruzalar matni – Toshkent, TTIMI, 2010 y.

30. Bolibekov B.O., Musayev A.N., va boshqalar. Buhgalteriya hisobini avtomatlashtirish.o`quv qo`llanma. –Toshkent, “Iqtisod-moliya” 2013y.

Ilovalar.

1-Ilova

Korxonaning 01.01.2015 yil holatiga Buxgalteriya balansi – 1-sonli shakl ma'lumotlari
(ming so'm) *

Ko`rsatkichlar nomi	Satr kodi	Xisobot davri boshiga	Xisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Aktiv			
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			

Boshlangich (kayta tiklash) kiymati (0100, 0300)	.010		
Eskirish summasi (0200)	.011		
Qoldiq (balans) kiymati (satr.010-011)	.012		
Uzoq muddatli investitsiyalar	.030		
Kimmatli kogozlar (0610)	.040		
CHet el kapitali mavjud bulgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	.070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	.080		
O`rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	.090		
Kapital kuyilmalar (0800)	100		
I bo`lim bo`yicha jami	130		
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy zaxiralari:	140		
Debitorlar	210		
Pul mablaglari	320		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
II bo`lim bo`yicha jami	390		
Balans aktivi bo`yicha jami	400		
Passiv			
I. Uz mablaglari manbalari			
Ustav kapitali (8300)	410		
Rezerv kapitali (8500)	430		
Taksimlanmagan foyda (koplanmagan zarar) (8700)	450		
Maksadli tushumlar (8800)	460		
I bo`lim bo`yicha jami	480		
II. Majburiyatlar			
Joriy majburiyatlar, jami shu jumladan	600		

Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga karz (6000)	610		
SHu'ba va karam xujalik jamiyatlarga karz (6120)	630		
Olingan bunaklar (6300)	670		
Byudjetga tulovlarbo'yicha karz (6400)	680		
Maksadli davlat jamgarmalariga tulovlar bo'yicha karz (6520)	700		
Mexnatga xak tulash bo'yicha karz (6700)	720		
Kiska muddatli bank kreditlari (6810)	730		
Boshqa kreditorlik karzlar (6950 dan tashkari 6900)	760		
II bo'lim bo'yicha jami	770		
Balans passivi bo'yicha jami	780		

*Manba: Korxonaning 2015yil hisoboti

S.M. Sultanova tomonidan ishlab chiqilgan

Izoh

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini baholash tizimini ishga tushirish uchun moliyaviy hisobotning 1,2-shakl ma'lumotlarini kiritish lozim

Korxona rekvizitlari

Korxonaning nomi	«O`ztemiryo`lmashta`mir»			
Rahbar (F.I.O.)				
Bosh buxgalter	Abdurahmonov K.B.			
Hisobot davri	Yil	Shakl	yillik	2010-yil uchun
«O`ztemiryo`lmashta`mir»UK				1-shakl
Buxgalteriya balansi				
31.12.2015-yil uchun				
Aktiv	Satr kodi	yil boshiga	yil oxiriga	
1	4	3	4	
I. Uzoq muddatli aktivlar				
Asosiy vositalar				
Boshlang'ich (qayta tiklash qiymati) (0100)	010			
eskirish summasi (0200)	011			
qoldiq qiymati (010-011)	012			
Uzoq muddatli investitsiyalar (040+050)	030			
Qimmatli qog'ozlar (0610)	040			
CHet el kapitali mavjud bulgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070			
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080			
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090			
Kapital qo'yilmalar(0800)	100			
I bo'lim bo'yicha jami	130			
II. Joriy aktivlar				
Tovar moddiy zaxiralari, jami (150)	140			
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150			
Debitorlar, jami	210			

Pul mablag'lari, jami (330+340+360)			320		
Hisoblashish schotidagi pul mablag'lari (5100)			340		
Boshqa joriy aktivlar (5900)			380		
II bo'lim bo'yicha jami (140+190+210+230+320+380)			390		
Balans aktivi bo'yicha jami			400		
Ustav kapitali (8300)			410		
Rezerv kapitali (8500)			430		
Taqsimlanmagan kapital (8700)			450		
Maqsadli tushumlar (8800)			460		
I bo'lim bo'yicha jami			480		
Joriy majburiyatlar, jami (610+630+670+680+700+720+730+760)			600		
Shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlar (610+630+670+680+700+720+760)			601		
Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga qarz (6000)			610		
Sho'ba va qaram xo'jaliklariga qarz (6120)			630		
Olingan bo'naklar (6300)			670		
Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (6400)			680		
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlar (6500)			700		
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)			720		
Qisqa muddatli bank kredirlari (6800)			730		
Boshqa kreditorlik qarzli (6900)			760		
II bo'lim bo'yicha jami (490+600)			770		
Balans passivi bo'yicha jami			780		

Korxona nomi

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot

2014-yil uchun

Ko'rsatkichning nomi 1	sitr kodi	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		Darom adlar	Xarajatl ar	Darom adlar	Xarajatl ar
		2	3	4	5
Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan sof tushum	010				
Sotilgan mahsulot tannarxi	020				
Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan yalpi foyda (010-020)	030				
Davr xarajatlari, jami (050+060+070+080), shu jumladan:	040				
Sotish xarajatlari	050				
Ma'muriy xarajatlar	060				
Boshqa operatsion xarajatlar	070				
Kelgusi davrda soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	080				
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090				
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (030-040+090)	100				
Jumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	220				
Daromad solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	240				
Daromad solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	250				
Boshqa soliq va yig'imlar	260				
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (240-250-260)	270				